

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI



O'zDSMI rektori, professor
N.B. Sayfullayev
2024-yil "30" avgust
Ro'yxatga olindi: № BD-60211000-1.17
2024-yil "___"

TASVIRIY VA AMALIY SAN'AT TARIXI

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100 000 - Gumanitar soha

Ta'lim sohasi: 150000 - San'at

Ta'lim yo'nalishi: 60211000 - San'atshunoslik: teatrshunoslik, sahna va ekran san'ati dramaturgiyasi, kino san'ati tanqidi va tahlili, san'at jurnalistikasi;
60211700 - Grim san'ati;
60210200 - Kino-teleoperatorlik

Fan/modul kodi		O'quv yili	Semestr	ECTS-Kreditlar
		2024/2025	3-4	4
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili o'zbek/rus	Haftadagi dars soatlari 2	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Tasviriy va amaliy san'at tarixi	60	60	120

I.Fanning mazmuni

Ushbu fan har tomonlama kamol topgan yuksak ma'nnaviyatli shaxsni tarbiyalab yetishtirishda, uning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o'ynaydigan, san'atning nazariy negizi hisoblangan fan hisoblanadi.

"Tasviriy va amaliy san'at tarixi" fan dasturida tasviriy san'at tarixi, rivojlanish an'analar, jaxon hamda O'zbekiston san'ati tarixida qadimgi davrdan to hozirgi kunga qadar mavjud uslub, yo'nalish hamda yirik ijodkorlar faoliyati, ifoda vositalari, Respublika madaniy hayotidagi islohotlar, san'at turi istiqboliga ta'sir etadigan masalalar qamrab olingan. Tasviriy san'at talabaning estetik tasavvurini boyitishga, dunyoqarash va fikrlash doirasini kengaytirishga katta ta'sir o'tkazdi.

Ushbu fan dasturi talabalarda asardagi hayotiy vogelik mohiyatini anglash, estetik baho berish va uning xarakterini ochishga turki bo'ladi. Talabaning ijodiy potensialini rivojlantiradi va tarbiyalaydi.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

III. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-Mavzu. Tasviriy va amaliy san'ati tarixi

Ibtidoi jamoa san'ati

San'at haqida umumiy ma'lumot, ularning inson hayoti va jamiyatda tutgan o'rni haqida tushuncha berish. Tasviriy va amaliy san'atning o'ziga xos tur, ko'rinishlari xaqida axborot beriladi. Badiiy ifodaviy vositalarni anglash ko'nikmasini shakllantiradi.

Me'morlik, haykaltaroshlik, grafika, amaliy-bezak san'ati, rangtasvir san'ati vazifalari. Tasviriy san'at janrlari-portret, peyzaj, natyurmort, tarixiy va maishiy janr. Stil – uning tur va janrdan farqi. Badiiy meros ahamiyati. Amaliy bezak san'ati tur va janrlari, maktablar va ustalar ijodining o'ziga xos xususiyatlari va yo'nalishlari.

Fanning ahamiyati. Tasviriy san'at turlari. Me'morlik, haykaltaroshlik, grafika, amaliy - bezak san'ati, rangtasvir san'ati vazifalari. Tasviriy san'at janrlari - portret, peyzaj, natyurmort, tarixiy va maishiy janr. Stil – uning tur va janrdan farqi. Badiiy meros ahamiyati.

Internet saytlari	
6.	www.gov.uz
7.	www.lex.uz
8.	www.Ziyo.net
9.	www.bilim.uz
10.	www.gov.uz
11.	artinst@mail.ru
7.	O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan
8.	Fan/modul uchun mas'ullar: I.R.Abdurahmonov – O'zDSMI, "San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrasi dosenti. F.M.Abduvohidov – O'zDSMI, "San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrasi dosenti.
9.	Taqrizchilar: A.H.Ismoilov – San'atshunoslik instituti bo'lim mudiri, san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent O.Z.Rizayev - O'zDSMI, "San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrasi professori, san'atshunoslik fanlari nomzodi.

- fanning moxiyatini talabalarga yetkazgan holda, antik davr va o'rta asrlardan t^c hozirgi kungacha jahon hamda O'zbekiston tasviriy san'at tarixi, uning turlari, janr, usul, uslublarning, badiiy ijod bilan shug'ullangan xorijiy va o'zbek rassomlari, haykaltarosh, me'morlar ijodi xaqida **tasavvurga ega bo'lishi**;
- tasviriy san'at tarixi va nazariyasidan beriladigan ta'limning boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqligini, qadimgi davr va o'rta asrlarda yuzaga kelgan metodlar tog'risida **bilimga ega bo'lishi**;
- tasviriy san'at asarları, muhim yodgorliklari, haykaltaroshlik namunalari o'ziga xos xarakteri, hususiyati, usul va uslubini kerakli baholash va asarlarini to'g'ri tahlil qilishn usullarini qo'llash, sohaga oid muammolar bo'yicha yechimlar xususiyatlarini **bilishi va ulardan foydalana olishi kerak**.

4. VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;
- amaliy ishlarni bajarish va xulosalash;
- interfaol keys-stadilar;
- blitz-so'roy;
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- jarayonga asoslangan metod.

VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

Asosiy adabiyotlar

1. Kultashev B. Tasviriy va amaliy san'at tarixi. O'quv qo'llanma. – T.: Innovatsiya – Ziyo, 20120. 378 b.
2. Abdullayev N. Jalon san'ati tarixi. O'quv qo'llanma. - T.: O'zbekiston, NMU. 2007. 224 b.
3. Xakimov A.A. Fayziyeva V.S. O'zbekiston davlat San'at muzeyi noyob xazinasidan. O'zbekiston amaliy san'ati. –Toshkent: Baktria press, 2014. - 236 b.
4. Hakimov A.A. O'zbekiston san'ati tarixi: qadimgi davr, o'rta asrlar, hozirgi zamон. –Toshkent: Zilol buloq, 2022. -528 b..

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Abdullayev N. San'at tarixi. 2 jildlik. Birinchi kitob. T.: San'at, 2001.
2. Abdullayev N. Sharq xalqlari san'ati. – T.: Avto Nashr, 2007.
3. Abdullayev N. O'zbekiston san'ati tarixi. – T.: Avto Nashr, 2007.
4. Oz'bekiston milliy ensiklopediyasi. T.: O'zbekiston milliy ensikpediya Davlat ilmiy nashryoti, 2006.
5. Abdullayev N. San'at tarixi. 2 tomlik o'quv qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 1986

Ibtidoiy jamoa san'ati. Tasviriy ijod namunalari. Qoya tasvirlari. Tosh va suyak haykalchalar. Paleolit, mezolit, neolit, bronza va temir davri san'ati. Tosh qurilishlari: mengir, dolmen, kromlex – o'zaro farqi va vazifalari. Ibtidoiy san'at o'choqlari.

2-Mavzu: Qadimgi Misr san'ati va Old Osiyo mamlakatlari san'ati

Qadimgi Misr san'ati. Uning davriy bosqichlari. Qadimgi Misr san'ati va madaniyatining o'ziga xos xususiyati. Misr me'morligi. Uning turlari va muhim yodgorliklari.

Misr rangtasviri va asosiy an'analari. Misr san'atida realistik tendensiyalarning o'sishi. Haykaltaroshlik va bo'rtmalar. Muhim namunalari.

Old Osiyo mamlakatlari davriy chegarasi. Ularning geografik o'rni. Ikki daryo oralig'i (Mesopotamiya) san'ati. Zikkuratlar. Haykaltaroshlik. Naramsin stelasi. Gudea portreti. Xamurapi stelasidagi relef. Gliptika. Ossuriya san'ati. Urartu davlati san'ati. Shumer davlati san'ati. Bobil podsholigi san'ati. Ishtar darvozasi. Bobil minorasi. Navuxodonosor saroyi.

3- Mavzu. Qadimgi Yunoniston san'ati va Qadimgi Rim san'ati

Antik tushunchasi. Uning davriy va geografik o'rni. Taraqqiyot bosqichlari. Yunon san'atida insoniylig va xalqchillik. Arxaika davri. Afsonalarning roli. Qadimgi Yunoniston me'morligi. Yunon ibodatxonalarining turlari – doriy, ion va korinf ibodatxona turlari xususiyatlari. Yunon klassika san'ati. Klassika tushunchasi.

Klassika me'morligi. Pestumdagagi Poseydon, Olimpdagi Zevs ibodatxonalar. Perikl davri me'morligi. Parfenon ibodatxonasi, Akropoldagi propilei, Erextyon, Niki Apteros ibodatxonasi.

So'nggi klassika me'morligi. Galikarnas maqbarasi. Epidavr teatri. Yunon me'morligining jahon me'morligiga ta'siri. Haykaltaroshlik. Realistik an'analarning ortib borishi. «Kuros» haykallari. Fidiy, Miron, Poliklet ijodi. Galikarnas maqbarasi uchun ishlangan bo'rtmalar. Praksitel, Afrodita haykali.

Qadimgi Rim tarixidagi asosiy rivojlanish va inqirozga yuz tutishidagi bosqichlar. Rim respublikasi va imperatorlik davri. Rim tasviriy san'ati. Rim haykaltaroshligida hikoyanavislik. Pompey devoriy suratlari. Rim mozaikasi va amaliy san'ati. Rim me'morligida grek orderlarining ta'siri. Qurilish texnologiyasining yutuqlari. Akveduk va yo'llar. Shaxar planirovkasi. Rim me'morligining jahon me'morligiga qo'shgan hissasi. Imperator davridagi Rim forumlari. Kolizey amfiteatri. Rim ibodatxonalarini va ularning o'ziga xos tomonlari. Panteon. Zafar arkalari.

A. Makedonskiy davlatining parchalanib ketishi. Ellistik davlatlarning yuzaga kelishi (Ellistik Misr, Pergam, Rodos va boshqalar). Ellinizm davrida me'morlik, tasviriy va amaliy san'at. San'at va madaniyatda grek va sharq

an'analarining uyg'unlashuvi.

Me'morlik. Shahar qurilishi. Aleksandriya shahri va uning tarxi. Aleksandr mayog'i. Haykaltaroshlik. Milos "Afrodita"si. "Laakon va uning o'g'llari" haykali. Pergam haykaltaroshligi. Rassomlik va amaliy san'at namunalarini. Rodos maktabi va uning o'ziga xosligi. Rodos haykaltaroshligi.

4- Mavzu. O'rta asrlar Yevropa san'ati

O'rta asrlar Yevropa xalqlari san'ati tarixiga tavsif. Xristian dini san'ati rivojiga ta'siri. Xristian dini san'ati xususiyatlari. Xristiyan dini afsona va rivoyatlari va tasviriy san'ati. Xristian san'ati an'analarining ishlab chiqilishi.

Vizantiya madaniyati va san'atining jahon san'atiga qo'shgan hissasi. VI - VII asr me'morligi. Konstantinopoldagi «Avliyo sofiya» ibodatxonasi. Mahobatli rangtasvir san'ati xususiyatlari. IX - XII asrlarda Vizantiya san'ati Konstantinopoldagi grajdan me'morligi. Avliyo Sofiya, Dafna ibodatxonasi devorlariga ishlangan monumental mozaika. Ikonapis, miniatyura san'ati. O'rta asrlar G'arbiy Yevropa san'ati. Roman san'ati yuzaga kelishi. «Roman» iborasi kelib chiqishi va shartiligi. Roman san'atida me'morlikning yetakchiligi. Roman san'ati rivojida Fransiyaning roli. Roman me'morligida ibodatxona turlari. Grajdan me'morligi. Fransiyadagi mahobatli rangtasvir (och va to'q ko'k fonli tasvirlar). Fransiya roman davridagi haykaltaroshlik va bo'rtmalar. Roman usuli tasviriy san'at mavzusi.

Germaniya roman davri me'morligi va tasviriy san'ati. Angliya roman san'ati. Italiya roman san'ati. Uning maktablarga bo'linishi.

G'arbiy Yevropada gotika san'atining asosiy belgi va xususiyatlari. «Gotika» iborasining kelib chiqishi. Gotika me'morligining o'ziga xos tomonlari. Parijdagi Bibi Maryamga bag'ishlangan ibodatxonalar (Notr Dam de Pari). Gotika haykaltaroshligi. Sobor peshtoqlariga ishlangan haykallar. Timpan bo'rtmalari. Rangtasvir, miniatyura va vitrajlar.

Germaniya gotika davridagi haykaltaroshlik va bo'rtmalar. Angliya gotika san'ati. Ispan va Italiya gotika san'ati.

5- Mavzu. Uyg'onish davri san'ati va XVII asr G'arbiy Yevropa san'ati

Uyg'onish davri san'ati. Uyg'onish (Renesans) tushunchasi. Uyg'onish davri san'atining gumanistik xarakteri. San'at mavzusini kengayishi. Antik san'atning o'rni.

Italiya uyg'onish davri san'ati. Italiya uyg'onish madaniyatining paydo bo'lish sabablar. Yalpi madaniyatning shakllanishi. XV asr oxiri va XVI asr boshlarida Italiya ijtimoiy jarayonida o'zgarishlar. Rim va Venetsiyaning ilg'or san'at o'chog'iga aylanishi. Me'morlik. F. Brunelleski ijodi. Rassomlik va haykaltaroshlik. Donatelloning haykaltaroshlikda novatorligi. Rangtasvirming rivojlanishi. Uyg'onish davri san'atining eng yirik vakillari.

nomidagi Nukus davlat sanat muzeyi, Samarqand davlat muzey qo'riqxonasi. O'zbekiston Badiiy akademiyasi tashkil topishi, tarkibi, faoliyati. Markaziy ko'rgazmalar zali. Xalqaro ko'rgazmalar va O'zbekiston rassomlarining ko'rgazmalaridagi ishtiroki.

IV. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Tasviriy va amaliy san'at turlari
2. Qadimgi dunyo san'ati.
3. O'rta asrlar Yevropa va sharq san'ati.
4. Roman va Gotika uslubi san'ati.
5. Uyg'onish davri Yevropa san'ati.
6. XVII asr Xorijiy G'arb san'ati.
7. XVIII asr Xorijiy G'arb san'ati.
8. XIX - XX asr Yevropa san'ati.
9. Sharqiy Yevropa san'ati.
10. Qadimgi va o'rta asrlarda O'zbekiston san'ati.
11. Temuriylar davri O'zbekiston san'ati.
12. XVI - XIX asrlarda O'zbekiston san'ati.
13. XX asrda O'zbekiston tasviriy san'ati.
14. Mustaqillik davri san'ati
15. Juhon muzeylari. O'zbekiston Badiiy akademiyasi.

V. Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Tasviriy va amaliy san'at turlari
2. Qadimgi dunyo san'ati.
3. O'rta asrlar Yevropa va sharq san'ati.
4. Roman va Gotika uslubi san'ati.
5. Uyg'onish davri Yevropa san'ati.
6. XVII asr Xorijiy G'arb san'ati.
7. XVIII asr Xorijiy G'arb san'ati.
8. XIX - XX asr Yevropa san'ati.
9. Sharqiy Yevropa san'ati.
10. Qadimgi va o'rta asrlarda O'zbekiston san'ati.
11. Temuriylar davri O'zbekiston san'ati.
12. XVI - XIX asrlarda O'zbekiston san'ati.
13. XX asrda O'zbekiston tasviriy san'ati.
14. Mustaqillik davri san'ati
15. Juhon muzeylari. O'zbekiston Badiiy akademiyasi.

3. V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

qalami va uslubiga xos xususiyatlarning ajralishi. Realistik an'analarning murakkablashuvi. Maishiy janrning rivojlanishi, N.Kashina, Z.Kovolevska, P.Benkov, M.Saidov, Z.Inog'omov va boshqalar ijodi.

Haykaltaroshlikda ijobji intilishlar. Psixologik obrazlar yaratilishi. F. Grishchenko «Ishchilar portreti», H.Husniddinov «Ona portreti». Barelef san'atining o'ziga xosligi.

14- Mavzu. XX asr ikkinchi yarmi O'zbekiston san'ati

XX asrning ikkinchi yarmida qaror topgan tarixiy shart - sharoitlar.

Me'morlikda yangi texnika va texnologiyaning qo'llanilishi. Zamonaviy inshootlarning barpo etilishi.

O'zbekiston rassomlari ijodining bu davrga oid eng yaxshi namunalari o'ziga xos uslub, ifodali obrazlar, yuksak profesional madaniyat fazilatlariga egaligi. Asarlar uslub va tematik jihatdan rang – barangligi.

60 – 70 yillar kitob grafikasi, plakat, sanoat grafikasi, haykaltaroshlik, dekorativ – amaliy san'at rivojlanishi. Mahobatli dekorativ san'at rivoji.

Qayta qurish davrida O'zbekiston san'ati. Rassomlar ijod uslubining boyishi. Ijod erkinligiga imkon berilishi. Avangard san'atining realistik san'at bilan birga rivojlanishi. B.Jalolov, J.Umarbekov, V.Axunov, A.Ikromjonov, M. Boboyev, V.Burmakin va boshqa rassomlar ijodi.

15- Mavzu. Mustaqillik davrida O'zbekiston san'ati

Mustaqillik davri O'zbekiston badiiy jarayonlari rivojlanish yo'llari. Yangi ma'naviy – g'oyaviy yo'nalishlarning shakllanishi va zamonaviy san'atning barcha sohalariga ta'siri. Yangi ijodiy yo'nalishlar va an'anaviy shakllar mutanosibligi.

Me'morlik san'atida zamonaviy ko'rinishdagi binolarning barpo etilishi. Klassik uslub va zamonaviy me'morlik unsurlarining o'zaro uyg'unlashuvi. Bog' – park qurilishiga e'tiborning kuchayishi. Turli maydonlarning yuzaga kelishi. Yaratilgan yodgorliklar xususiyatlari.

Rangtasvir uslub va kompozitsion yechimining turli – tumanligi. Tarixiy janrga e'tiborning kuchayishi. Buyuk tarixiy shaxslar portretlarining yaratilishi. Rassomlar ijodiy yo'nalishning erkinligi, mavzu doirasining boyligi. S. Raxmetov, A. Nur, A. Mirzayev, S. Alibekov va boshqalar asarlari xususiyatlari.

Haykaltaroshlik. Mahobatli haykaltaroshlik rivoji. Haykaltaroshlikda kompozitsion yechim va plastik shakl uyg'unligi. I.Jabborov, R.Mirtojiev, T.Tojixo'jayev va boshqalar ijodi. Grafika, plakat hamda amaliy bezak san'ati rivoji.

Jahon va O'zbekiston muzeylari tashkil topishi, faoliyati, taraqqiyoti haqida ma'lumotlar beriladi. Jahondagi yirik muzeylar, ularning nodir asarlari o'rganiladi. O'zbekistondagi yirik badiiy muzeylar faoliyati, eksposiziya masalalari korib chiqiladi. O'zbekiston davlat san'at muzeyi, I.Savitskiy

Yuqori uyg'onish davri san'atining asoschisi. Leonardo da Vinci hayoti va ijodi. Psixologik portretlari. Novator sifatidagi yangiliklari. Leonardo da Vinci ijodining ahamiyati.

Mikelanjelo Buanarotti hayoti va ijodiy faoliyati. Mikelanjelo haykaltarosh. Dovud haykali. Vatikan Sikstin kapellasiga ishlangan devoriy suratlar. Mikelanjelo ijodida me'morlik.

Rafael hayoti va ijodi. Badiiy xususiyatlarning Rafael asarlarida cho'qqisiga chiqishi. «Konstebl madonnasi», «Sikstin madonnasi» kabi diniy mavzudagi asarlari.

Germaniya uyg'onish davri san'ati. A. Dyurer ijodi.

Niderlandiya Uyg'onish davri san'ati. P. Breygel ijodi.

XVII asrning yangi zamon milliy madaniyatlari shakllanishi uchun alohida ahamiyati. Bu davrda katta milliy badiiy maktablarning muayyan o'ziga xosligi (Italiya, Flandriya, Gollandiya, Ispaniya, Fransiya). XVII asr san'at tarixida yangi bosqich sifatida.

XVII asr G'arbiy Yevropa mamlakatlarining tarixiy rivojlanishiga umumiyo tafsif. XVII asrning ikki katta uslubi – barokko va klassitsizm. Me'morlik va san'at sintezining yangi tushunchasi. Realistik yo'nalishining G'arbiy Yevropa san'atida muhim o'rni. Tasviriy san'atning yangi turlari va janrlari rivojlanishi – maishiy janr, peyzaj, natyurmort.

XVII asr Italiyada barokko san'atining vujudga kelishi va taraqqiyoti. Italiya barokko me'morligi. Jakomo dela Porta (1541-1608). Il-Jezo cherkovi.

Lorenso Bernini (1560-1680). Uning memorlik sohasidagi ishlari. Bernininining haykaltaroshlik ishlari.

Italiyada dastlabki barokko tasviriy san'ati. Aka – uka Karrachchilarning Balonya Akademiyasi. Annibale Carrachchi (1560- 1609) ijodi. XVII asr boshlaridagi Italiya tasviriy san'atida realizm taraqqiyoti. Mikelanjelo da Karavajo (1571-1610) - XVII asr Italiya tasviriy san'atidagi realizistik yo'nalish yetakchisi.

XVII asr Gollandiya ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyoti xususiyatlari va ularning Gollandiya san'ati yo'nalishiga ta'siri. Davlat badiiy hayotida tasviriy san'atning yetakchi o'rni. Asosiy badiiy vogelikning realizistik yo'nalishi. Portret, tabiat tasviri, natyurmort kabi realizistik janrlarning rivoji.

Rembrandt van Reyn (1606-1669) – XVII asr golland tasviriy san'ati maktabining ulug' rassomi va G'arbiy Yevropa san'atida buyuk rassom-realistic. Rembrandt psixologizmi, insom kechinmalarini tasvirlashga bo'lgan qiziqishi. Rembrandtning badiiy uslubi. Tasvirlash usullari, ranglar uyg'unligi talqini.

XVII asrdagi Flandriya san'ati. XVII asr oxiridagi Niderland inqilobi va uning natijasi. Niderlandiyaning parchalanishi. Flandriyada Ispaniyaning hukmonligi, feodal katolik tazyiqi. Flamand san'ati xalqning o'z-o'zini anglashi ifodasi sifatida.

Piter Paul Rubens (1577-1640) flamand maktabining yetakchisi. XVII asr Yevropa san'atining yirik ustasi sifatida. Rubens san'ati rivojining asosiy bosqichlari Tasviriy san'at kompozitsiya sohasida izlanishlari, harakat muammosini yangicha tushunish va tahlil etish. Rubensni jahon san'atiga ta'siri.

Ispaniyaning XVII asrdagi tarixiy taraqqiyoti, xususiyatlari. XVII asr ispan san'atiga umumiy tavsif. Ispan tasviriy san'atining gullab yashnashi. Yirik ispan rassomlari ijodining realizmi, xalqchilligi, demokratikligi. (Xose Ribera, Fransisko Surbaran).

Diyego Velaskes (1599-1660) - Ispaniyaning buyuk rassomi va G'arbiy Yevropa tasviriy san'atidagi realizmning yirik vakili. Rassom ijodining davrlari, Valaskes asarlari mazmuni teranligi va uning rangtasvir mahorati.

XVII asr Fransiyaning ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy ahvoliga umumiy tavsif. Absolyut davlatchilik doirasida fransuz milliy madaniyatining shakllanishi, tasviriy san'atning rivojlanishi.

Bu davrdagi me'morlik sohasidagi murakkablik va qarama –qarshilik. Uning o'tkinchiligi. Jak Lemerse (1585-1654). Luvr va Versalda u yaratgan binolar.

XVII asr fransuz tasviriy san'atidagi oqimlarining xilma-xilligi. XVII asr yarmida klassitsizm. Uning asosiy xususiyatlari, g'oyaviy mazmuni. Bu davrdagi klassitsizmning ilg'orlik xususiyati. Nikola Pussen (1594-1665) – XVII asr buyuk fransuz rassomi. Pussen ijodining falsafiy ahamiyati. Uning ijodida antik davr va italyan san'atining roli. San'atkoring diniy va tarixiy mavzudagi asarlari. Pussen ijodiy uslubi.

6- Mavzu. XVIII asr Xorijiy G'arb san'ati va XIX asr Yevropa san'ati

XVIII asr ma'rifatparvarlik va fransuz burjua revolyusiyasi davri. XVIII asr san'atidagi asosiy badiiy yo'nalishlar, uslublar va tendensiylar. XVIII asr «klassitsizm»ining yangi qirralari. Maishiy janr va portret yutuqlari.

XVIII asr dabdbobili va tantanali uslubi rokokoning yengil, nozik va kibor san'atiga o'sib borishi. Rokoko bezak ashysosi va bezak tasviriy san'ati sifatida. Rokoko usulining me'morlik qurilmalari va tashqi bezaklarga ta'siri.

Antuan Vatto (1684-1721) XVIII asr yirik fransuz rassomi. Vatto san'atining murakkabligi. Uning ijodida bezak shartiligi xususiyatlari.

Rokoko tasviriy san'ati, uning bezakli xarakteri. Bu davrda Rassomlar Akademiyasi roli. Fransua Bushe (1703-1770) – rokokoning yirik ustasi. Bushe asarlarining bezakdorligi.

Amaliy, xususan mebel, bronza, o'ymakorlik, kumush, chinni, zargarlik san'atlarining yuqori darajadagi rivoji.

XIX asrda Yevropada siyosiy – iqtisodiy va madaniy ahvol. San'atda uslublar rang – barangligi va buning sabablari.

XIX asrda Fransiya san'ati. D. David ijodi. Uning «Goratsiylar qasami», «Maratning o'limi», «Dovud» portreti.

komplekslashtirilishi.

Tasviriy san'at rivojlanishi. «Bog'i dilkusho» saroyi devoriy surati. Miniatyura san'ati rivoji.

Ulug'bek davri san'ati. Ulug'bek observatoriysi. Registon ansamblı.

A. Navoiy tasviriy san'at rivojiga qo'shgan hissasi. K. Behzod ijodi.

Amaliy san'at rivoji. Kulolchilikning ravnAQI.

Davrga umum ta'rif. Madaniyat va san'at xususiyatlari. Me'morlik. Grajdjan me'morligining rivojlanishi. Buxorodagi Ko'kaldosh madrasasi. Nodir Devonbegim karvonsaroyi. Xo'ja Zayniddin xonaqosi.

Shayboniyalar davri miniatyura san'ati. Mahmud Muzaxxon ijodi. Muzaxxon ijodida portret.

Amaliy bezak san'ati. Kandakorlik. Kulolchilik maktablarining yuzaga kelishi. Buyumlar shaklining mukammallashuvi.

13- Mavzu. XVIII – XX asrlarda O'zbekiston san'ati

Xonliklarning yuzaga kelishi va madaniy ahvol. Buxoro, Xiva, Qo'qon me'morlik maktabları va ularning xususiyati. Kaltaminor. Pahlavon Mahmud kompleksi.

XIX asr Chor Rossiyasi Turkistonga yurishi. O'zbekistonga yangi madaniyatning kirib kelishi. Dastgohli rangtasvir ijodkorlari. V.Vereshagin, N.Karazin, L.Bure va boshqalar. Tasviriy san'at mavzusi turlari. Maishiy mavzu xususiyatlari.

1918 yil Samarqand badiiy bilim yurti tashkil etilishi. Mahalliy rassomlarning dastgohli rangtasvirda ijod eta boshlashi.

1919 yil Toshkent xalq tasviriy san'at maktabi tashkil etilishi. San'atning ommaviy – tashviqot turlari, gazeta – jurnal grafikasining, plakat san'atining avjolishi.

O'zbek tasviriy san'atining shakllanishi. Sovet vogeligi mavzuini o'zlashtirish bilan bog'liqlik. L. Bure, N. Qoraxon, A. Volkov, V. Yeremyan, I. Ikromov, O'. Hafizov, O. Tatevosyan va boshqa rassomlar ijodi xususiyatlari.

Haykaltaroshlik. T. Shevchenkoga atalgan haykal. «Ozodlik» monumenti.

Amaliy san'at. Zamoniaviy buyumlarning ko'payishi, amaliy san'atning bir oz susayishi. An'anaviy bezak elementlarining zamoniavylashtirilishi.

O'zbekiston tasviriy san'atining hayot va vogelikka munosabatini kuchayishi. Tematik kartinalarning yuzaga kelishi. CH. Ahmarov «Bolaligim», O'. Tansiqboyev «O'zbek portreti», B. Hamdamiyning «Kolxoziilar», «Tekstil qurilishda», A. Siddiqiyning «Avtoportret», «To'y» kartinalarida obrazlar doirasining kengayishi. A. Volkov asarlarining turmush mazmuniga yaqinlashishi. Manzara janrinining rivojlanishi. O'. Tansiqboyev, R. Temurov ijodi.

Yosh rassomlar sonini ortishi. Asarlar g'oyaviy – badiiy darajasining ko'tarilishi. Rassomlarda mahoratning yetuklashishi. San'atkor shaxsiyati, uning

Haykaltaroshlik xususiyati.

Kushon davri san'atining so'nggi bosqich xususiyatlari. Ayrитом ibodatxona xarobalari. Bo'rtma namunalari.

Buddizm bilan bog'liq me'moriy majmular. Ibodatxona va stupalar.

Amaliy san'at rivoji va xususiyatlari.

11- Mavzu. Eftalitlar, Turk xoqonligi Arab istelosi va davrida davrida O'zbekiston san'ati

IV – V asrlar antik imperiyalarining barbod bo'lishi. Eftalitlar davlatining tashkil topishi. Bu davlatning 563 – 567 yillarda Turk xoqonligi tomonidan parchalanishi.

Me'morlik va uning xususiyatlari. Bolaliktepa qo'rg'oni, Varaxsha saroyi. Afrosiyob yodgorligi. Qurilish texnikasidagi o'zgarishlar. So'g'd, Baqtriya, Xorazmda olib borilgan qurilishlar.

Devoriy suratlarda tasvir murakkabligi. Kompozitsiya boyligi va ranglar xilma – xilligi, o'ziga xosligi. So'g'd badavlat xonadonlari va qasrlarida loy, ganch, yog'och va tosh o'ymakorligi.

Koroplastika va kandakorlik san'ati taraqqiyoti. Haykaltaroshlik, bo'rtma tasvir ko'rinishi hayotga tadbiq etilishi.

Kitobat san'ati rivoji. Qog'oz ishlab chiqarishning rivojlanishi. Amaliy san'atning gullab yashnashi.

Arab istilochilarining Markaziy Osiyoga bostirib kelishi. Istilo natijasida madaniy markazlar o'z mavqeini yo'qotishi. Islom dinining madaniyat va san'atga ta'siri.

Me'morlik. Masjid qurilmalari va ularning turlari. Madrasa va maqbaralar qurilishi. Gumbazli va peshtoqli me'morlik.

Somoniylar davri san'ati. Somoniylar davrida devoriy suratlar. Somoniylar maqbarasi. Karvonsaroylarning o'ziga xosligi.

Mo'g'ullar (XIII asr) davri O'zbekiston san'ati. «Ma'sudiya», «Xonumiyo» madrasasi. To'rabetxonim masjidi. Pahlavon Mahmud, Jaloliddin Rumiy maqbaralari.

12- Mavzu. Temuriylar davri O'zbekiston san'ati va XVI – XVII asrlar Shayboniyalar va Ashtarxoniyalar davrida O'zbekiston san'ati

Amir Temur Movarounnahr davlatini tashkil etishi. Madaniyat va san'atga e'tiborning kuchayishi.

Me'morlikning yuksalishi. Shaharsozlikka e'tiborning kuchayishi. Samarqand shahrining qayta qurilishi. «Bo'stonsaroy», «Ko'ksaroy», «Oq saroy» qasr qurilishi. «Bibixonim», «Amir Husayn», «Ahmad Yassaviy», «Shodimulk og'o», «Go'ri Amir» maqbara va madrasalari. «Shohi Zinda» maqbara kompleksi. Me'morlikda arab epigrafiysi qo'llanilishi. Bog' – park qurilishi. Inshootlarning

Fransuz san'atida romantizm. Uning yetuk ijodkorlari. T. Jeriko romantizm asoschisi va "Meduza soli" asari.

E. Delakrua ijodida romantizm estetik qarashlarning shakllanishi. Kompozitsiya yechimi, mavzu, ranglar uyg'unligi, erkinligi.

40-70 yillarda Fransiya san'atida realistik san'atning rivojlanishi. «Barbizon» maktabi va uning yirik vakillari. K. Korro, J. Mille, G. Kurbe va boshqalar realistik san'at rivojiga qo'shgan hissalar.

60-80 yillarda fransuz san'ati. E. Mane (1832-1883). Ilk asarlari («Olimpiya», «Daladagi nonushta»). Zamonaivy shahar hayotini ifodalash.

7- Mavzu. Impressionizm va postimpressionizm va XX asr madaniyatini va san'atida asosiy badiiy oqim va yo'nalishlar

Impressionizm oqiminining yuzaga kelishi. Birinchi impressionist rassomlar: Klod Mone, Ogyust Renuar, Edgar Dega, Kamil Pissaro, Al-Fred Sisley, Berta Morizo. Impressionistlarning rangtasvirga yangicha munosabati. San'atni tushunish mohiyatining o'zgarishi. Impressionizm badiiy uslublarining ishlab chiqilishi. Impressionizm gumanistik tushunchasi. Impressionist rassomlarning har bir holat va lahzani estetik ahamiyatini aks ettirishi. Asarda bosh va ikkinchi darajali tushuncha an'anasidan voz kechish. Plener sistemasi – badiiy usullarining impressionistlar tomonidan ishlab chiqilishi.

Postimpressionizm tushunchasi. V. Van Gog, P. Gogen, P. Sezann, A. Tuluz-Lotrek postimpressionizm badiiy oqimida ijodi. Postimpressionizm oqimi badiiy xususiyatlari. Postimpressionizmning XX asr badiiy madaniyatiga ta'siri.

XX asr yangi san'ati. Oqim va yo'nalishlar turlari. San'atni yangicha tushunish. «Modernizm», «Yangi san'at» («Neasan'at»), «Badiiy avangard» atamalari. Noan'anavy badiiy yo'nalishlarning novatorlik xarakteri. Yangi san'atning noommabopligi. San'at mustaqilligi va rassomning erkin ijod huquqi.

Fovizm – avangard birinchi oqimi sifatida yuzaga kelishi. A. Matiss ijodi. Kubizmning yuzaga kelishi. Kubizm eng yirik vakili Pablo Picasso (1881-1973) ijodi. Picasso ijodidagi asosiy bosqich va yo'nalishlar. «Gernika», «A. Vollar portreti» asarlari. Picasso ijodi ahamiyati va jahon madaniyatiga qo'shgan hissasi. Ekspressionizm va uning yuzaga kelishi. Syurrealizm va uning yuzaga kelishi. S. Dali – syurrealizmning eng yirik vakili sifatida. Postmodernism san'ati: instolyatsiya, perfomans, popart kabilalar haqida umumiy ma'lumotlar.

8- Mavzu. Qadimgi Rus san'ati va X11- XX asrlarda Rus san'ati

Qadimgi rus san'ati. Sharqiy Yevropa tushunchasi. Uning tarkibidagi davlatlar haqida ma'lumot. Slavyanlar san'ati. Slavyanlar badiiy madaniyati. Xristian dinining qabul qilinishi. Me'morlik. Kiyevdagи avliyo Sofiya ibodatxonasi. Novgoroddagi Sofiya ibodatxonasi. Rassomlik. Sofiya ibodatxonasi devoriy

suratlari.

Andrey Rublyov – qadimgi rusning buyuk rassomi. Vladimirdagi Uspeniye Soboriga ishlangan asarlari. «Uch farishta» Rublyov ijodining cho'qqisi. Umumrus san'atining shakllanishi.

Rossiya imperiyasining tashkil topishi. Petr I sotsial reformalari. Me'morlik. Peterburg shahriga asos solinishi va qurilishi. Shahar qurilishida mahalliy ustalar va chet davlatlardan taklif qilingan ustalarning qatnashishi. K. Rastrelli ijodi.

Rus Badiiy Akademiyasining tashkil topishi. Rus portret san'atining rivojlanishi. Nikitin, Matveyev ijodi.

Rus san'atida klassitsizmning asosiy o'rinni egallashi. V. Kokorinov, V. Bajenov ijodi.

Rus haykaltaroshligining rivojlanishi. E. M. Falkone (1716-1791) ijodi. «Mis chavandoz» haykali.

XIX asr Rossiyaning ijtimoiy hayotda yuksalishi. Progressiv g'oyalarning o'sishi. XIX asr rus san'atining o'ziga xosligi. San'atda g'oyaviy realizm.

XIX asr Rus me'morligi. Uning yetuk vakillari ijodi, muhim asarlari (A. Voronixin, A. Zaxarov, K. Rossi, Monferon va boshqalar).

Haykaltaroshlik. Haykaltaroshlikda milliy ozodlik g'oyalaringning aks etishi. Mahobatli – dekorativ haykaltaroshlikda vatanparvarlik g'oyalari. I. Martos ijodi.

XIX asr birinchi yarmi rangtasviri. Barcha janrlarda rus rassomlarining erishgan yutuqlari. A. I. Ivanov – tarixiy rangtasvir ijodkori. Portret san'atining demokratlashuvu. O.A.Kiprinskiy ijodi. “A.K.Shvalbe portreti”, “A.S.Pushkin portreti”.

V.A. Tropinin ijodida maishiy sahnalarining o'rni. Portret janrida erishgan yutuqlari. K.P.Bryulov ijodida badiiy g'oya vazifalari, klassitsizmning o'rinni olishi. “Pompeyning so'nggi kuni” asari. A.A.Ivanov asarlarda falsafiy g'oyalari, o'tkir psixologiyasi namoyon bo'lishi. “Isoning xalqqa ko'rinishi” asari.

XIX asr ikkinchi yarmi rus san'atida rangtasvir san'atining yetakchiligi. Ilg'or rassomlarning g'oyaviy realizm uchun kurashi. «14-lar bunti», «Sayyor rassomlar birodarligi» tashkil etilishi va uning a'zolari.

I. YE. Repin (1844-1930) – XIX asr ikkinchi yarmining mashhur rassomi. Hayotiy – maishiy hamda tarixiy janrlarda yaratgan asarlarning g'oyaviy mohiyati, davr muammolari bilan uzyiy bog'liqligi. Repin ijodida portret janrinining tutgan o'rni.

V. I. Surikov (1846-1916). Tarixiy janrda asarlар yaratgan buyuk rus rassomi. Uning ijodida xalq tarixiy taraqqiyotining asosiy kuchi sifatida talqin etilishi.

Manzara janri. XIX asr ikkinchi yarmida rus manzara rassomligida realistik an'analarining kuchayishi (Ayvazovskiy, K. Savrasov, I. Shishkin, I. Levitan).

XIX asr oxiri XX asr boshlarida rus san'atidagi badiiy guruhlar. V. Serov (1861-1911) ijodi. Rus avangardi. Yiyrik namoyondalar ijodi.

9- Mavzu. Ibtidoiy davr O'zbekiston san'ati va Ahmoniyalar davri

O'zbekiston san'ati

O'zbekistonda dastlabki san'at shakllari. Eramizdan avvalgi XIII – V asrlar paleolit davri. O'zbekiston janubidagi Zarautsoy dasasida topilgan qoya tasviri. Xo'jakent va Bo'stonliq qoyalariga o'yib ishlangan san'at namunalari.

O'zbekiston amaliy san'atining dastlabki namunalari. Neolit davrining ganchkorlik sopol buyumlari. Terrakota diniy haykalchalar. Dehqonchilik tangrilari bilan bog'liq ayollar siyosidagi haykalchalar.

O'zbekiston hududida bronza davri (eramizdan 2 ming yil ilgari) badiiy hunarmandchilik, madaniyatning rivojlanishi. Farg'ona va Amudaryo bo'yini vohasidagi qadimiy madaniyat.

Qadimgi kulolchilik markazlari (Zamonbobo, Tozabog' yob madaniyati).

Ilk temir davrda hozirgi O'zbekiston hududida uchta tarixiy – madaniy mintaqaning tashkil topishi. Amudaryoning o'rta va yuqori oqimida Baqtriya, Qashqadaryo va Zarafshon daryolari oralig'ida So'g'd va Amudaryoning quiyi yo'naliishi Xorazm madaniyati shakllanishi.

Eramizdan avvalgi VI asrda Baqtriya va So'g'd Ahmoniyalar davlati tarkibiga kiradi. Ushbu davr san'atida yangicha badiiy usullarning ishlab chiqilishi. V – III asrlarga mansub Amudaryo xazinasi namunalari. Persopel, Suza yodgorliklari.

Dumaloq haykaltaroshlik va bo'rtma tasvirlar. Me'moriy bezaklar. Uizdakdag'i kapitel.

Shaharsozlikda rejalashtirish g'oyalari. Baqtriya, Kriopl, Nautaka, Maroqand, Erk qal'a va boshqa shaharlar.

10- Mavzu. O'zbekiston Yunon – Baqtriya san'ati va Kushon imperiyasi davrida O'zbekiston san'ati

Ahmoniyalar davlatining barham topishi. Aleksandr Makedonskiy (eramizdan avvalgi 334 – 326 y.) bosqinchilik yurishlari. Markaziy Osiyo madaniyati va san'ati tarixida yangi davr – ellinism davri boshlanishi.

Baqtriya san'atida ellinistik an'analar. Dalvarzintepa, Xolchayon, Kampirtepa, Eski Termiz madaniy markazlari san'atini o'ziga xosligi.

Antik dunyo davrda me'morlik. Saroy qurilishi. Ibadatxona inshootlari. Mahalliy me'morlik va grek me'morligi elementlarining uyg'unlashuvi.

Ushbu davrda haykaltaroshlik va devoriy suratlari. Yunon mifologiyasi ta'siri. Numizmatika va tasviriy san'atda hukmdorlar obrazlari ifodalanishi. Amaliy san'at ravnaq topishi.

Eramizdan avvalgi I – III asrda Kushon imperiyasining tashkil topishi. Kushon davlatining dastlabki markazi. Baqtriya, So'g'd, Ellinlashgan, Old Osiyo san'ati an'analarini ta'siri. Kushon san'atini o'rganishda numizmatikaning ahamiyati.

Xolchayon shahrining tutgan o'rni. Xolchayon ustunli saroyi. Xolchayon me'morligi va tasviriy san'at. Devoriy surat mavzusi rang - barangligi.